

AMARANT (AMARAMTHUS) O‘SIMLIGINING AGROTEKNOLOGIYASI

Eryigitova Sitora Sobir qizi

Toshkent Davlat Agrar Universiteti magistri

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-son qarorida keltirilgan —Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora tadbirlaril to‘g‘risidagi qarorda belgilab qo‘yilgan o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish xamda madaniy holda yirik plantasiyalarini barpo qilish xamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi PQ-4901-son qarorida —Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘ga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlaril to‘g‘risidagi qonunga muvofiq ishlarni amalga oshirish. [1]

Dunyoning ko‘plab mamlakatlari jumladan Hindiston, Kamerun, Xitoy, Germaniya, Frantsiya, Boliviya, Meksika, Tanzaniya, Tojikiston va mahalliy nav namunalarning urug‘lari, qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha o‘rganilmoqda. Ushbu amarant namunalarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Amarant – *Amaranthus* oilasiga mansub bo‘lib, bu oila oltmishdan ortiq turlarni o‘z ichiga oladi. Vatani Janubiy Amerika bo‘lib, uni bu yerda 8000 yildan beri urug‘ uchun yetishtirilib kelinadi. Amarant Janubiy Amerikadan Shimoliy Amerikaga, Hindistonga va u yerdan Osiyo mamlakatlari bo‘ylab dunyoga keng tarqalgan. Hozir Hindiston va Xitoyda amarantning juda ko‘p xillari mavjud bo‘lib, bu o‘lkalar amarantning ikkilamchi vatani hisoblanadi. Bu mamlakatlarda amarant o‘simligidan mahalliy tabobatda, milliy taomlarda va sanoatda keng foydalaniladi.

Maqsad: Amarant o‘simligini yetishtirish agroteknikasini ishlab chiqish, o‘simlikning biologiyasi, o‘rganish asosida ko‘paytirish texnologiyasini ilmiy asoslash. Amarant o‘simligini ko‘paytirishning samarali usullari hamda

tavsiyanomalar ishlab chiqiladi, hamda mahsulot sifatiga baho beriladi, farmatsevtika sanoatiga tatbiq etiladi.

Usul va uslublar: Amarant maysalari yer yuziga chiqqanidan so‘ng dastlabki 4-5 haftada begona o‘tlarni yo‘qotish, qator oralarini yumshatish va yagana qilish ishlariga qaratildi.

Natijalar: Respublikamizda *Amaranthus* turkum o‘simliklarini Markaziy Osiyo ikdim sharoitiga moslashtirish, yangi navlarni yetishtirish, ularni kayta ishlash yuzasidan muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmokda. Biorganika instituti olimi Olimjonov Sh. S. tomonidan maxalliyashtirilgan *Amaranthus* o‘simligi urug‘larini kayta ishlash mahsulotlarining kimyoviy tarkibi va ular asosida biologik faol ko‘shimchalar yaratish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilgan. Amarant maysalari yer yuziga chiqqanidan so‘ng dastlabki 4-5 haftada begona o‘tlarni yo‘qotish, qator oralarini yumshatish va yagana qilish ishlariga qaratildi. O‘simliklarni bo‘yi 12-15 sm ga yetganida esa qator oralarini ishlash bilan birga ularning rivojlanishini tezlashtirish maqsadida gektar hisobiga 30 kg dan azot va 15 kg dan kaliy o‘g‘iti berilib, 4-8 sm chuqurlikda kultivatsiya ishlari o‘tkazildi. Ikkinchi oziqlantirish o‘simlikning bo‘yi 40-45 sm ga yetganda gektariga 25 kg dan azotli va fosforli o‘g‘itlar bilan oziqlantirildi. O‘simlikni oziqlantirish albatta sug‘orishdan oldin amalga oshirildi. O‘simlik oziqlantirilgandan va sug‘orilgandan keyin uning o‘sishi va rivojlanishi tezlashdi. Oxirgi oziqlantirishni uning bo‘yi 75-85 sm ga yetganda azotli va kaliyli o‘g‘itlar berish bilan tugallandi. Mavsum davomida amarantni 8-9 marta sug‘oriladi va gektariga 75-90 kg azot, 60 kg fosfor, 35 kg kaliy va yer haydash oldidan 25 tonna go‘ng bilan oziqlantirildi. Iyul oyigacha amarant o‘simligini 2-3 marta o‘rib olindi. Bu esa iyul oyining oxiriga kelib ildiz tizimidan yangi o‘t o‘sib chiqishini ta‘minlaydi. Amarantning yashil massasida oqsil modasi ko‘p bo‘lganligi uchun chorvachilikda silos va boshqa oziqalarni ishlab chiqarishda ko‘proq ishlatiladi.

Xulosa: Mazkur malumotlardan kelib chiqib *Amaranth* o‘simligining O‘zbekiston sharoitida yetishtirish, madaniy holda o‘stirish va ko‘paytirish maqsadida Amarant dorivor o‘simligini yetishtirish ko‘p mehnat talab etmaydigan yetishtirish

qulay hamda hamma organlaridan ham foydalansa bo‘ladigan o‘simliklar qatoriga kiritsak respublikamizda yetishtirishni kengaytirish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-apreldagi — Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ4670 -son karori.

2. Olimjonov Sh. S. Maxalliyashtirilgan *Amaranthus* o‘simligi urug‘larini qayta ishlash maxsulotlarining kimyoviy tarkibi va ular asosida biologik faol kushimchalar yaratish. Kimyo fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, - Toshkent – 2021

3. Pazilbekova Z, Eryigitova S amarant (*amaranthus*) o‘simligining urug‘larining unuvchanligi va dorivorlik xususiyatlari Toshkent 2021 O‘zbekiston agrar habarnomasi №2(86-2).2021